



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

INSONPARVARLIK – INSON VA JAMIYAT MA'NAVIY QIYOFASINING MEZONI

Salimjon Evatov

PhD,

Farg'ona davlat universiteti,

O'zbekiston, Farg'ona sh.

Annotatsiya: *Shaxs ma'naviyati mezonlari, ko'rinishlari, mohiyati va ahamiyatini yoritishdan avval uning mezonlari va belgilarini (fazilatlarini), ularning o'zaro farqi haqida qisqacha ma'lumot berishni lozim topdik. Shaxs ma'naviyati mezonlari mamlakat, millat, insonlar hayoti va kelajak taqdiri tahlikali holatga tushganda uning oldini olish uchun millat, halq va uning vakillarida namoyon bo'ladigan ma'suliyat hissi, ma'naviy tuyg'u va e'tiqodning amaliy namoyon bo'lishi deb tushunishimiz mumkin. Shaxs ma'naviyati mezonlariga vatanparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik, o'z millatiga sadoqat, milliy o'zlikni anglash, qonunga itoatkorlik, davlat tizimiga hurmat, fuqarolik burchiga sadoqat va boshqalar kirib, ular chuqur va keng ijtimoiy ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi.*

Maqolada insonparvarlik – inson va jamiyat ma'naviy qiyofasining mezonlari ekanligi ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *fuqarolik jamiyati, insonparvarlik, adolat, ma'naviyat, vatanparvarlik.*

Annotation: *before highlighting the criteria, manifestations, essence and significance of personality spirituality, we found it necessary to give a brief overview of its criteria and signs (qualities), their mutual difference. We can understand that the criteria for personality spirituality are a practical manifestation of the sense of responsibility, spiritual feeling and faith that manifests itself in the nation, the people and its representatives in order to prevent it when the life and future fate of the country, Nation, people fall into a state of danger. Personality spirituality criteria include patriotism, humanism, justice, loyalty to one's own nation, national identity awareness, law obedience, respect for the state system, loyalty to one's civic duty, etc., and are characterized by having a deep and broad social significance.*

The article scientifically investigated whether humanity is a criterion for the spiritual image of Man and society.

Keywords: *civil society, humanity, justice, spirituality, patriotism.*

Insonparvalik bu o'zbek halqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. U purma'no va sermazmun tushunchadir. Insonparvarlik o'zbek halqining ajralmas hislati tarzida ko'zga tashlanadi. Qur'oni Karim insonparvarlik g'oyalari asosiga qurilgan. Muxammad alayhissalom hadisi shu g'oyalarga boy hikmatlar majmuasi



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

sanaladi. Insonparvarlik kishilarning bir-biriga hurmatida, qadr-qimmatida, mehr-shafqatida, diyonatda, o'zaro ko'maklashuvda, hamdardlikda, boshqalar qayg'usiga sherik bo'lib, quvonchidan va baxtidan sevinishda, xalq baxti va yutuqlaridan faxrlanishda ko'rinadi.

O'zbek halqining turmush tarzi, mehnat faoliyati, o'zaro munosabatlari, hamkorlik, hamdardlik, vafodorlik, bir-biriga suyanishi, yaxshi qo'shnichilik, bolajonlik, ota-onaning farzandga, farzandning ota-onaga hurmati, sadoqati kabi qadriyatlari insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. O'zbek xalqi bir umr mehr-shafqatli bo'lgan, barchaga yordam qo'lini cho'zgan. O'zbek halqi o'zining insonparvarligini fashizmga qarshi kurash yillari etim bolalarning boshini silab, o'z tarbiyasiga olib yorqin namoyon etdi.

O'zbek halqi doimo umuminsoniyat dardini kuylab kelgan. Al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ibn Sino, az-Zamaxshariy, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Ogahiy asarlaridagi g'oyalar- insonparvarlik ruhi bilan ajralib turadi. Xususan, Navoiy ijodida insonparvarlik alohida ahamiyat kasb etadi. Uningcha, vatanga, halqqa sadoqat eng avval uning taqdiri ustida g'amho'rlikdan iboratdir. Insonga nisbatan beparvolik, uning taqdiri va baxtu saodati ustidagi g'am emaslik sharafli inson uchun tamomila yotdir.

Navoiy ijodida bu mavzuning alohida o'rin egallaganligi tahsinga sazovordir. U nafaqat badiiy ijodda, balki o'z amaliy faoliyatida alohida o'rin egallaganligi tahsinga sazovordir. U nafaqat badiiy ijodda, balki o'z amaliy faoliyatida ham yuksak insonparvarlikka sodiq qolgan mutafakkirdir. U halq uchun, el-ulus uchun, beva-bechora, etim-esirlar uchun madrasalar, tabobat xonalar, shifo maskanlari qurdirgan. Doshqoznlarda ovqat pishirib tekinga tarqatgan. Dardmanlarga bepul tabobat ko'rigi uyushtirib tibbiy yordam bergan. Bunday insonparvarlik namunasidan hammamiz har qancha o'rnak olsak arziydi.

O'zbek milliy an'anamizga ko'ra dardmanlarga malham topish, ojizlar va kambag'allarning ko'nglini ko'tarish, etimlar va beva bechoralarga yordam, rahm-shafqat qilish insoniylik jihatidan burch, diniy jihatdan katta savobli ishdir.

Demakki, bir muxtojning, noiloj, chorasiz qolgan odamning ko'nglini ko'tarish, dardiga malham topish savoblik darajasi jihatidan vayron bo'lgan Ka'bani qayta tiklashdan ko'ra afzaldir.

Bahovuddin Naqshband ham insonga xizmat qilish, unga rahm-shafqat, mehr-muruvvat ko'rsatishni savobli ishlar turkumiga kiritadi. Uning fikricha, hatto namoz o'qiyotgan vaqtda bir odamga yordam berish kerak bo'lib qolsa, darhol namozni to'xtatib, yordamga oshiqish kerak. Nochor odamga ko'rsatilgan yordamdan kelgan savob namoz o'qib orttirilgan savobdan afzalroqdir.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Buyuk davlat arbobi, cheksiz saltanat sohibi Amir Temurning mashhur «Kuch-adolatda!» shiorining negizida ham insonparvarlik g'oyalari yotganligini anglab olish qiyin emas.

Insonparvarlik boshqa xalqlarga ham xos xususiyat. Buni xech kim inkor etolmaydi. Ammo o'zbek xalqi ma'naviy dunyosidan chuqur joy olgan va ildiz otgan insonparvarlik teran mazmuni va mohiyati bilan ulardan farqlanadi.

Shunday qilib insonparvarlik-insonlarning o'zaro hurmatida, bir-birini qadrlashda, ko'nglini ko'tarishda, mehr-oqibatli bo'lishda, ko'maklashishda, hamdardligida namoyon bo'ladigan ma'naviylik mezonidir.

Tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma'no bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralar negizida insonparvarlik g'oyalari yotganligini anglab olish qiyin emas. Mustaqil O'zbekiston davlatimizning butun siyosati insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilganligi va uni amaldagi namunasi ekanligi bilan har birimiz har qancha faxrlansak arziydi. Jumhuriyatimizda inson huquqlari va demokratiyaga oid masalalar maxsus qonun bilan belgilab qo'yilgan.

Insonparvarlikning ko'rinishlaridan biri bu insonni ulug'lashdir. Inson tabiatning gultoji. U har qancha maqtovga loyiq zot sanaladi. Bu haqda Qur'on va hadislarda, mutafakkirlar ijodida ajoyib, ibratli fikrlar aytilgan. Biz bu o'rinda «Sharq Gegeli» degan sharafli nomga sazovor bo'lgan faylasuf shoir, mutafakkir Mirzo Abdulqodir Bedil so'zlarini keltirish bilan cheklanamiz. Bedil insonni irqiy, milliy, diniy e'tiqodlaridan qat'iy nazar hurmat va ehtiroimga sazovor zot deb biladi va bu haqda shunday deydi: "Har kimki, hazrati insonni sajdaga sazovor demasa, u mal'undir". Qanday ajoyib fikr! Ushbu fikr har qanday davr uchun ham adolatli, ardoqli va oliyjanobdir.

Mustaqil Respublikamiz fuqarolari, xususan yoshlari ruhiyatida vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ularni rivojlantirish demokratik, adolatli jamiyatni barpo etishning muhim kafolati sanaladi. SHuning uchun vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish butun tarbiyaviy ishimizning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmog'i lozim.

O'z millatiga sadoqatli bo'lish millatparvarlik bilan hamohang tushunchadir. Millatparvalik bu har bir inson uchun yuksak burch va ma'naviy mezon sanaladi. O'z millatini sevmagan inson o'zini ham, vatanini, shu jumladan boshqa millatni ham seva olmaydi. Millatparvarlik o'z millatini boshqa millatlardan ustun qo'yish yoki kamsitish kabi (millatchilik va shovinizm) jirkanch harakatlardan tubdan farq qiluvchi tuyg'udir. Millatparvarlik o'z millatining birligini mustahkamlash, o'z tili, urf-odatlarini, an'analarini rivojlantirish, qadriyatlar va meroslarni ko'z



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

qorachig'iday asrash, o'z millatining kelajagi uchun xizmat qiluvchi aql-zakovat (intellektni), salohiyatni (potençial) rivojlantirish va milliy tarbiyani amalga oshirish yo'lida fidoyi bo'lishdir.

Milliy o'zlikni anglashning muhim omili bo'lgan millatparvarlik tuyg'usini shakllantirishda yaqin o'tmishda millatimiz manfaatlarini ko'zlab millatparvarlikning yorqin namunasini ko'rsatgan millatimizning sodiq farzandlari amalga oshirgan ishlarni tashviqot qilish katta ahamiyatga ega.

Mustamlakachilik va sho'ro tuzumi davrlarida millat va vatanning tarixi va qadr-qimmatini tiklash, milliy ongini o'stirish, ma'naviyatini yuksaltirish uchun bel bog'lab kurashgan Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori, Abdulla Qodiriy, Ibrohim Mo'minov, Habib Abdullayev, Sharof Rashidov, Yax'yo G'ulomov kabilarning nomlari vatanparvarlik va millatparvarlikni o'zida yorqin mujassam etganligini yoshlarga tushuntirishimiz lozim. Ular vatan, millat tarixi va taqdiridagi eng og'ir damlarda el, xalq, vatan ahvolini ko'rib kuyib yonganlar, uning istiqbolini o'ylab harakat qilganlar, ma'naviyat va ma'rifat ziyosini targ'ib etib, xalqning milliy ongini ko'targanlar, obro'-e'tibori, or-nomusi, qadr-qimmatini, manfaatini himoya qilganlar. Millatimiz mustaqilligi, Vatan ozodligi uchun jon fido etdilar. Ularning faoliyati, qoldirgan merosi elim deb, yurtim deb, uning istiqboli deb kuyib, yonib yashashning yorqin namunasidir.

Ulardan biri millatimiz sharafini himoya qilibgina qolmay, uni jahon uzra ko'z-ko'z qilishda o'zlarini ayamadilar. Yana birlari esa ona zaminda millatimiz orasidan ulkan kadrlar etishib chiqishiga jonbozlik ko'rsatdi, boshqa birlari esa, yurtimizdan tashib ketilgan xomashyolar o'rnini to'lg'izish uchun markazdan ko'proq texnika, texnologiya, fan yutuqlarini, mablag'larini olib kelish yo'lida faollik ko'rsatdi.

Amalga oshirilgan va oshirilayotgan bunday savobli ishlar halqimiz, ayniqsa unib-o'sib kelayotgan farzandlarimizning ongu shuurida tarixiy adolatga ishonch va insoniylik fazilatlarini qaror toptirish, ularning ma'naviy olamini kengaytirishda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekani bilan ayniqsa e'tiborlidir.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent.: O‘zbekiston. 2021.
3. Evatov, S. S. (2020). MODERN SOCIAL AND PEDAGOGICAL MEASURES FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIAL COMPETENCE AMONG STUDENTS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(7), 484-489.
4. Evatov, S. S. (2021). FORMATION OF STUDENTS COMMUNICATIVE COMPETENCE IN THE PROCESS OF CONTINUOUS EDUCATION. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(05), 13-19.
5. Sobirovich, E. S. (2021). Developing Communicative Competence of Students: Historical and Pedagogical Experience. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 2(5), 108-111.
6. Sobirovich, E. S. (2021). INNOVATION EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(05), 483-487.
7. Sobirovich, E. S. (2022). CONTENT AND SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL BASIS OF THE CONCEPT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE Teacher at Fergana State University. World Bulletin of Social Sciences, 9, 176-180.
8. Sobirovich, E. S. (2022). On The Basis of Family and School Cooperation Theoretical and Methodological Fundamentals of Developing Communicative Competence of Adolescent Students. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 2(4), 73-77.
9. Абдулазизова, Н., & Эватов, С. (2014). КАСЬ-ХУНАР КОЛЛЕЖИ ЎҚУВЧИЛАРИДА ЗАРАРЛИ ОДАТЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ОМИЛЛАРИ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 25(4), 38-41.
10. Эватов, С. С. (2016). THE ROLE OF FAMILY IN SOCIETY AND CHILD'S EDUCATION IN FAMILY. Учёный XXI века, (5-1 (18)), 46-49.
11. Эватов, С. С. (2022). ОИЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИ АСОСИДА ЎСМИР ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ. Science and innovation, 1(В3), 182-190.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

12. Karimova, G. (2018). IMPLEMENTATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS WITH THE INTERACTIVE METHODOLOGICAL COMPLEX. Теория и практика современной науки, (2 (32)), 3-5.

13. Эватов, С. С., & Ибрагимова, С. И. (2022). ЎСМИР ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК МАЗМУНИ. ТА'ЛИМ ВА INNOVATION TADQIQOTLAR, 8-9.